



Xalq so'zi

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024 yil 26-sentabr, № 198 (8821)

Payshanba

Saytimizga c'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling.



O'zbekiston –
kelajagi
buyuk
davlat

YANGI O'ZBEKISTON GLOBAL VA MINTAQAVIY MASALALAR BO'YICHA MULQOT MAYDONIGA AYLANMOQDA

Samarqand shahrida 25-26-sentyabr kunlari Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashi IX yillik yig'ilishi o'tkazilmoqda.



Sammida 100 dan ortiq mamlakatlardan yuqori darajali delegatsiyalar, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Jahan banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa

xalqaro tashkilotlar rahbarlari hamda vakillari, yetakchi xorij kompaniyalarining boshqaruvchilarini va nufuzli eksperterlari – ikki mingga yaqin ishtirokchilar qatnashmoqda.

"Barcha uchun barqaror infratuzilma yaratish" mavzuida o'tkazilayotgan bu galgi yig'ilish kun tartibidan global iqtisodiyot va moliya sohalaridagi dolzarb masalalar,

Osiyo va dunyoning boshqa mintaqalarida infratuzilmani rivojlantirishning strategik dasturlari va rejalarini muhokama qilish o'rinn olgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-sentyabr kuni Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashi IX yillik yig'ilishi o'tkazilmoqda.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVNING OSIYO INFRATUZILMAVIY INVESTITSIYALAR BANKI BOSHQARUVCHILARI KENGASHINING TO'QOZINCHI YILLIK YIG'ILISHIDAGI NUTQI

Hurmatli Szin Lisyun janoblari!
Hurmatli yig'ilish ishtirokchilar!

Xonimlar va janoblar!

Sizlarni O'zbekiston zaminida, ko'hma va hamisha navgiron Samarqand shahrida ko'rib turganidan beri xursandman.

Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashining yillik yig'ilishi mintaqamida ilk bor o'tkazilmoqda. Bu nufuzli anjumanning navbatdagi, to'qizinchisi majlisiga uchun aynan O'zbekiston tanlanganini biz o'zaro humrat va ishonchiga asoslangan hamkorligimizning yuksak namunasini deb bilamiz.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda Yangi O'zbekiston muhim global va mintaqaviy masalalarni muhokama qilish, ularga samarali yechimlar topish uchun xalqaro mulqot maydoniga aylanlan boryapti.

Bugungi anjumanimizda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlardan 2 mingga yaqin vakillar

qatnashmoqda. Sizlar mamlakatimizdagagi jadal islohotlar, qulay investitsiya va tadbirkorlik muhitini bilan yaqindan tanishib, o'zaro manfaati hamkorlikning yangi yo'nalishlarini belgilab olasizlar.

Shu bilan birga, yurtimizning boy tarixi va zamonaviy qiyofasini o'zida mujassam etgan Samarqand shahri barchangizda o'chmas taassurot qoldiradi, deb ishonaman.

Hurmatli anjuman qatnashchilar!

Hech kimga siferasmas, dunyodagi tahlikali vaziyat kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Hozirda jahondagi murakkab geosiyosiy vaziyat, global iqtisodiyotdagi beqarorlik, oziq-ovqat va energiya resurslari tanqisligi, kambag'allik, ekologiya muammolarini tobora o'tkiz ushbu yil bormoqda. Masalan, o'rtacha global harorat 2040-yilga qadar 1,5 darajaga ortishi proqnoz qilingan edi. Lekin hozirgi vaziyatda bu holat 2030-yildayoq yuz berishi mumkinligi bizni jiddiy xavotiga solyapti.

Bugungi anjumanimizda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlardan 2 mingga yaqin vakillar

Dunyo aholisining to'rtan bir qismi toza ichimlik suvi muammosiga duch kelmoqda. Iqlim o'zgarishi sur'atlari tezlashishi oqibatida oziq-ovqat tanqisligi global xavfga aylandi. Natijada dunyoda 800 millionga yaqin aholi ota og'ir kambag'allik sharoitida yashayapti.

Turli mintaqalarda avj olayotgan ziddiyatlar bois an'anaviy logistika yo'nalishlari mutlaqo o'zgaryapti. Mahsulot yetakzish zanjiridagi uzilishlilar xomashyo va iste'mol tovarlarining qimmatlashishi sabab bo'yapti.

Bularning barchasi – mavjud infratuzilma bolgan yuklamani keskin oshiradi va global iqtisodiy taraqqiyotga katta to'siq boladi. Ekspertlar fikriga ko'ra 2030-yilgacha dunyoda yangi infratuzilma uchun 15 trillion dollar investitsiya talab qilinadi.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar oqimi so'nggi ikki yildan buyon 10 foizdan kamaymoqda, dunyoda moliyaviy resurslar qariyb 2 barobar qimmatlashdi.

Bular barcha mamlakatlarning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishini qiyinlashtirmoqda.

Bunday sharoitda global xavf-xatarlar oqibatlini yumshatish, barqaror o'sish, aholi turmush sharoitini yaxshilashda xalqaro moliya tashkilotlarining roli yanada oshib bormoqda. Bu borada Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki qisqa davr ichida 55 milliard dollarlik loyihiyor portfeli bilan nafaqat mintaqaga, balki jahon moliyosidagi eng nufuzli moliya tashkilotlardan biriga aylanganini alohida e'tirof etish lozim.

Aziz do'stlar!

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda ortga qaytmas tus olgan islohotlar va tub o'zgarishlar jadal amalga oshirilmoqda. Biz iqtisodiyotni liberallashtirish, xalqimizning turmush darajasi va farovonligini yuksalrishga asosiy e'tibor qaratayapmiz.

O'tgan davrda yalpi ichki mahsulotimiz hajmi 2

barobar ko'payib, ilk bor 100 milliard dollardan oshdi. Kelgisi besh yilda bu raqamni 160 milliard dollarga yetkazishni reja qilganimiz.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – mamlakatimizni aholi daromadi o'tchadigan yugorbi o'lgan mamlakatlar qatoriga olib chiqish. Ushbu maqsadlarga erishish uchun oldimizga katta-katta marrilari qo'yg'aniz.

Birinchi. Biz to'rt yil ichida mamlakatimizdagagi kambag'allik darajasini 23 foizdan 11 foizga tushirishga erishidik.

Joriy bu ko'rsatkichni 9 foizgacha, 2030-yilga qadar esa 2 barobar pasaytirishni maqsad qilganimiz.

Bizning islohotlarimiz tub negizida tadbirkorlikni faol qo'llab-quvvatlash, odamlarimiz uchun barcha sohalarida yangi ish o'rinalarini va daromad manbalarini ko'paytirishdek ustuvor vazifa mujassam.

HAMKORLIK ALOQALARINING AMALIY JIHATLARI – MUHOKAMALAR MARKAZIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-sentyabr kuni Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki (OIIB) Boshqaruvchilari kengashining yillik yig'ilishi doirasida ushbu yetakchi xalqaro moliya instituti prezidenti Szin Lisyun va bir qator nufuzli delegatsiyalar rahbarlari, vazirlar va yirik kompaniyalar yetakchilarini qabul qildi.



OIIB prezidenti Szin Lisyun banking asosiy tadbirdini Samarqand shahrida o'tkazishiga har tomonlama ko'maklashgan uchun davlatimiz

rahbariga chuqur minnatdorlik bildirdi hamda Yangi O'zbekistondagi ortga qaytmas islohotlarni bundan buyon ham qat'iy qo'llab-quvvatlashini tasdiqladi.

O'zbekistonning Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki bilan keng qamrovli hamkorligini rivojlantirishning amaliy jihatlari ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda hamkorlik eng

yugori darajaga ko'tarilgani mammuniyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.



rivojlantirishning amaliy jihatlari ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda hamkorlik eng

SAYLOV – 2024

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palasati, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo'yicha saylov kampaniyasi doirasida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti davom etmoqda. Bugungi sonda O'zbekiston Ekologik partiyasi nomidan "Yashil va musaffo hayot, sog'lom kelajakni istaganlarning barchasi biz tomonda" sarlavhali maqola e'lon qilinmoqda.

3-sahifaga qarang.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OSIYO INFRATUZILMAVIY INVESTITSIYALAR BANKI BOSHQARUVCHILARI KENGASHINING TO'QQIZINCHI YILLIK YIG'ILISHIDAGI NUTQI

1 Shu bilan birga, aholining sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, eng og'i hududlarda infratuzilma tarmoqlarini barpo etishni qamrab oлgan "ko'p o'chovli" kambag'allikni qisqartirish dasturini amalga oshirayapmiz.

Shu bois ilg'or xorijiy yondashuvlar asosida eng quiy bo'g'in – mahalla darajasiga tushgan holda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha O'zbekiston tajribasini yaratdik. Yaqinda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovindori janob Abxijit Banerji "O'zbekistondagi mahalla tizimi har bir muhtoj oilani kambag'allikdan olib chiqish bo'yicha o'zining noyob retseptiga ega", deb ta'kidlagani ham bejiz emas.

Ikkinchisi. Inson kapitalini rivojlantirishni mamlakatimiz barqaror va uzoq muddati iqtisodiy o'shining mustahkam poydevori, deb bilamiz.

Bu borada so'nggi sakiz yilda maktabgacha ta'lim qamrovini 27 foizdan 74 foizga oshirdik.

Yangi maktablar qurilib, qo'shimcha 800 mingta o'quvchi orni yaratildi. Oliy o'quv yurtlari soni 200 dan oshib, qamrov 9 foizdan 38 foizga yetdi.

Biz kelgusi 3-4 yilda maktabgacha ta'lim qamrovini kamida 80 foizga yetkazishni maqsad qilganimiz. Buning uchun xususiy sektor bilan birga 240 ming o'rini bog'chalar barpo etiladi.

Shuningdek, kelgusi yildan boshlab davlat-xususiy sheriklik asosida har yili barcha shahar va qishloqlarda eng ilg'or standartlarga mos keladigan 100 tadan yangi maktablarini ishga tushirishni reja qildik. Bunga kelgusi yillarda 2 milliard dollar investitsiya kiritamiz.

Biz ta'lindagi loyihamoni xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorligimizning yangi istiqbollari yo'naliishi sifatida belgilab olishni taklif qilamiz.

Uchinchisi. Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda energetika, suv, transport, IT va boshqa

infratuzilmalarni yaxshilash uchun yillik ehtiyojimiz yalpi ichki mahsulotning 10 foiziga teng.

Shu ma'noda, bugungi anjuman "Barcha uchun barqaror infratuzilma yaratish" manzuida o'tkazilayotganini olqishlaymiz.

Bu boroda xalqaro moliya tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilib, katta tajriba ottirdik. Buning natijsasida ushu sohalarga xususiy sektor faol kirib bormoqda.

Biz 2030-yilgacha 30 milliard dollarlik davlat-xususiy sheriklik loyihamonini amalga oshirish bo'yicha katta dastur qabul qildik. Xususan, Toshkent – Samarqand va Toshkent – Andijon yo'naliishlarida pullik avtomobil yo'llari, Toshkent – Samarqand, Samarqand – Navoiy – Buxoro yo'naliishlarida tezyurar poyezdalar uchun yangi temir yo'l qurish loyihamonini amalga oshiriladi.

Respublikaning 6 ta xalqaro aeroportini modernizatsiya qilishni davlat-xususiy sheriklikka beramiz.

Shuningdek, kelgusi besh yilda elektr, suv va gaz taqsimlash tarmoqlarini boshqarish xususiy operatorlarga o'tadi. Masalan, Samarqand viloyatining elektr tarmoqlarini boshqaruvga olish bo'yicha o'tkaziladigan tenderga 50 dan ziyod xorijiy nufuzli kompaniyalar o'z qiziqishini bildirdi.

Shu bilan birga, bizda har yili 100 mingdan ziyod xonodonli uy-joylar qurilmoga. Masalan, Toshkent, Samarqand, Namangan va Andijon kabi yirik shaharlarimiz hamda qolgan viloyatlar markazlariga yo'dosh "Yangi O'zbekiston" shaharchalarini qurish bo'yicha katta loyihamoni amalga oshirayapmiz.

Bu boroda o'rta shaharlarni rivojlantirish bo'yicha 200 million dollarlik, qishloq joylardagi infratuzilmani yaxshilash bo'yicha 130 million dollarlik loyihamonini Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki bilan hamkorlikda boshlaganimizni alohida e'tirof etmoqchiman.

Ishonchim komil, Bank va boshqa hamkorlarimiz bilan bunday infratuzilmaviy loyihamoni yanada kengaytiramiz.

To'rtinchi. "Yashil" iqtisodiyotni jadal rivojlantirishni oldimizga ustuvor vazifa sifatida qo'yib, 2030-yilgacha "yashil" energiya manbalarini 40 foizga yetkazish bo'yicha katta marra olganimiz.

Bu boroda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki 2030-yilga borib jami portfelining 50 foizini o'zgarishi bilan bog'liq loyihalarga yo'naltirishi bizning maqsadlarimiz bilan hamohang.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yirik "yashil" energiya loyihamonida Bank nufuzli xorijiy kompaniyalar bilan birga ishlab, bu sohada global darajada yangi andozalarini yaratmoqda.

Biz kelgusi yillarda yana 18 gigavatt quyosh va shamol, 3 gigavatt gidroelektrstansiyalar, 5 gigavatt energiya jamlash sig'almi hamda 5 milliard dollarlik elektr tarmoqlarini ishga tushirishimiz.

Mazkur loyihamonlari orqali yirik "yashil" ma'lumotlar markazlarini ham yaratmoqchimiz. Bu – barcha xalqaro moliya tashkilotlari uchun ham jozibador loyiha boladi, deb hisoblayman.

Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan yiliga 100 million dollarlik "yashil" sertifikatlar bozori shakllanib, bu xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikning yangi istiqbollari yo'naliishi bo'lishiga ishonoman.

Qo'shi mamlakatlardan ham qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha katta loyihamonlari boshlaganini qayd etish lozim. Kelgusi yillarda qayta tiklanuvchi energiya resurslariga boy Markaziy Osiyo Jahor energetika bozorlariga "yashil" energiya yetkazib beradigan yirik eksportchiga aylanishi uchun katta qadamlar tashlayapmiz. Bu boroda Transkaspiy elektr tarmog'ini barpo etish loyihamonini katta salohiyatga ega ekanini alohida ta'kidlagomqchiman.

Shu o'rinda, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki boshchiligidida Markaziy Osiyoda "yashil" energiyani rivojlantirish dasturini amalga oshirishni taklif qilaman.

Beshinchi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo aholisi 80 milliondan oshdi. Mintaqaning yalpi ichki mahsuloti kelgusi besh yilda 700 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, mintaqamizda yirik infratuzilma loyihamonlari talab kun sayin ortib bormoqda.

Hozirda amalga oshirish boshlangan Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'lini qurish ana shunday yirik mintaqaviy infratuzilma loyihasiga yaqqol misoldir.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligi va suv resurslari taqchilligi muammolari ayniqsa o'tkir tus olnomad.

O'zbekiston bu boroda o'z strategiyasini ishlab chiqib kelgusi besh yilda suvdan foydalanish samaradorligini 25 foizga oshirish orqali 15 milliard kub metr suvni tejash bo'yicha katta loyihamon boshlagan.

Lekin suv muammosini hal qilish butun mintaqaga davlatlari va xalqaro moliya tashkilotlarning birgalikda ishlashini talab qiladi.

Shu bois Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki bilan hamkorlikda suv tejaydigan texnologiyalarni keng joriy qilish bo'yicha mintaqaviy markaz tashkil etish tashhabbusini ilgari sozqochiman. O'yalmanki, qo'shnilarimiz ham bu tashhabbusimizni qo'llab-quvvatlaydi.

Humratli bank boshqaruvchilar!

O'zbekiston barqaror rivojanish maqsadlariga erishish yo'lida Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining hissasini yuqori hisoblaydi.

Bugungi kunda infratuzilma, energetika, transport, suv ta'minoti va barqaror rivojanish yo'naliishida Bank bilan 3 milliard dollarlik 15 ta loyiha amalga oshirilayapti.

Mammuniyat bilan aytilish kerakki, bularning hisobidan O'zbekiston bankning "TOP – 10" ta hamkoridan biriga aylanadi. Misol uchun, Bank bilan hamkorlikda Buxoro viloyatidagi ichimlik suvi tarmoqlarini yaxshilash bo'yicha 720

million dollarlik loyiha qarib 1,5 million aholini toza ichimlik suvi bilan uzlusiz ta'minlaydi. Yoki Buxoro – Xiva temir yo'lini elektrlashtirish loyihasini ishga tushirish natijasida Xiva shahriga yiliga qo'shimcha 1 million turist jaib qilish imkoniyati yaratiladi.

Ta'kidlash kerakki, shu kunlarda Bank bilan kelgusi uch yilda yana 4 milliard dollarlik loyihamon dasturini amalga oshirishga kelishib oldik.

Fursatdan foydalanib, biz bilan birgalikda loyihamonlari amalga oshirayotgan va keng ko'lamli islohotlarni qo'llab kelayotgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki prezidenti Szin Lisyun janoblariga, Bankka a'zo davlatlar humkattari va boshqaruvchilariga yana bir bor chiqur minnatdorlik bildiram.

O'z oldiga qo'yan maqsadlariga erishish yo'lida Bankning barcha jamoasiga ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Shuningdek, bugun anjumanda ishtirok etayotgan Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki hamda yirik kompaniya va investortlarga o'zimming alohida hurnmat va ehtiromimni izhbor etaman!

Humratli anjuman ishtirokchilar!

Kelgusi ikki kunda Bank boshqaruvchilarini oldida juda muhim global va mintaqaviy muammolarga zamonaviy dostonshuvlar asosida yechimlar topish, yangi loyiha va dasturlari muhokama kili mas'uliyati vazifalar turibdi.

Sizlar qabul qiladigan qarorlar Bankka a'zo mamlakatlarda yashaydigan 6 milliarddan ziyod aholining kundalik hayotiga bevosita ta'sir qiladi.

Ushbu ulkan vazifalarni amalga oshirishda sizlar o'zingizning chiqur bilim, boy tajriba va kuch-g'ayratining ayamaysizlar, deb ishonoman.

Barchangiza mustahkam sog'iq, baxtsaodat va qadimiy Samarqandda ishlariningiz muvaffaqiyati bo'lishini tilayman.

Siz, aziz do'stlarimizni O'zbekistonga yana ko'p bor kelishingizni kutib qolamiz.

HAMKORLIK ALOQALARINING AMALIY JIHATLARI – MUHOKAMALAR MARKAZIDA

1 Loyerhalar portfeli 3 milliard dollarдан oshdi, bu esa O'zbekistonn OIIBning mintaqadagi asosiy benefitsiariga aylantiridi va amaliyotlar hajmi bo'yicha dunyoda oltinchi o'rning chiqardi.

Transport, energetika, sog'liqi saqlash, qishloq xo'jaligi, infratuzilma, kommunal soha hamda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha strategik sheriklik dasturini tayyorlashga kirishish tashabbusini ilgari surʼinga.

O'zbekiston Prezidentiga Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniying salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Joriy yil noyabr oyida Hukumatlararo komissiyoning navbatdagi yig'ilishini puxta tayyorgarlik ko'rgan holda o'tkazish hamda uning doirasida Sanoat kooperasiyasini dasturini qabul qilish muhimligi qayd etildi.

Energetika, neft-kimyo, raqamlashtirish, sog'liqi saqlash, farmatsuetika sohalarida loyerhalarini amalga oshirish, transport yo'laklarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Prezidentiga Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniying salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazgan Qatar Davlati moliya vaziri Ali bin Ahmad al-Quvari bilan mulqot davomida "yashil" energetika, transport, sog'liqi saqlash, turizm, infratuzilmani rivojlantirish va boshqa yo'naliishlardagi loyerhalarini ilgari surish muhimligi qayd etildi.

Uchrasuvda qurilish materiallari sanoatida yuqori texnologik loyerhalarini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Ayni paytda Samarqand viloyatida quruq aralashmalari va mikroksits ishlab chiqarish, Qashqadaryo viloyatida marmarmi qayta ishlash loyerhalarini amalga oshirilmoqda.

Yuqori soqlikgagi alyuminiy va meta-kaolin, keramogranit, lok-bo'yoq mahsulotlari va fibrotsement ishlab chiqarish bo'yicha yangi loyerhalarini jadallashtirishga kelishib olindi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston – Saudiya Ishbilarmonlar kengashi hamraisi, "ACWA Power" kompaniyasi boshqaruv raisi Muhammad Abunayyan bilan uchrasuvda mazkur kompaniya bilan keng ko'lamli loyerhalarini amalga oshirish dasturi qabul qilingan.

Xususan, Toshkent – Samarqand va Toshkent – Andijon pullik avtomobil yo'llarini qurish, Toshkent – Samarqand, Samarqand – Navoiy – Buxoro tezyurar temir yo'lini barpo etish, 6 ta xalqaro aeroportni modernizatsiya qilish va boshqa muhim loyerhalarini amalga oshirilayaptdi.

Yana bir ustuvor yo'naliish – "yashil" iqtisodiyotni jadal rivojlantirish. O'zbekistonda 2030-yilga borib "yashil" energiya ulushini 40 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Yaqin yillarda quyosh, shamol va gidroelektrstansiyalarini, infratuzilma obyektlari va tarmoqlarini qurish regionalda qo'shma loyerhalarini jadallashtirishga kelishib olindi.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Samarkand shahriga tashrifini yakunlandi.

O'za

YANGI O'ZBEKISTON GLOBAL VA MINTAQAVIY MASALALAR BO'YICHA MULQOT MAYDONIGA AYLANMOQDA

1 Iqtisodiyotni erkinlashtirish, aholi turmush darajasi va daromadlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani qayd etildi. Ushbu maqsadlarga erishishda xalqaro moliya institutlari, shu jumladan, OIIB bilan hamkorlikning ustuvor yo'naliishlari belgilab olindi.

Eng avvalo, tadbirdorlikni faol qo'llab-quvvatlash, ish o'rinnari yaratish, odamlarning daromad manbalarini ko'paytirish, aholining sifatli ta'lim va tibbiyotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, olis hududlarda infratuzilma tarmoqlarini yaratish orqali "ko'p o'chovli" kambag'allikni qisqartirish dasturi amalga oshirilayaptdi.

Shuningdek, yirik mintaqaviy infratuzilma loyerhalarini amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj oshib borayotganiga e'tibor qaratildi.

Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'l qurilishi buning yorqin misoldir.

Ayni paytda Markaziy Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligi va suv resurslari taqchilligi muammolari ayniqsa o'tkir tus olnomad.

Mamlakatimiz rahbari Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki bilan hamkorlikda Markaziy Osiyoda "y

Senat qo'mitasida

XALQARO HUJJATLAR RATIFIKATSİYA QILINADI

Oliy Majlis Senati Xalqaro munosabatlardan, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasining majlisida ikkita muhim qonun dastlabki tarzda muhokamadan o'tkazildi.

Unda senatorlar, mutasabdi vazirlik va idoralar vakillari, mahalliy Kengashlar doimiy komissiyaları raislari, ekspertlar guruhi a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirda birinchi bo'lib "Xalqaro mehnat tashkilotining haq to'lanadigan ta'tillar to'g'risidagi 132-onli Konvensiyasini (1970-yil 21-qiyada qoya ko'rib chiqilgan) (Jeneva, 1970-yil 24-iyun) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, bu xalqaro hujjat 38 ta davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan bo'lib, unda mehnat munosabatlarda xodimlarning ishlafiyatlarni amalga oshirish hamda bog'liq huquqlarini, shu jumladan, dam olish va haq to'lanadigan ta'llillardan foydalanshan huquqlarini ta'minlash choralarini yanada kuchaytiish kabi masalalar qamrab olingan.

Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi O'zbekiston va Xalqaro mehnat tashkiloti o'ttasidagi o'zaro hamkorlikni yanada rivojlanitirishga, shuningdek, milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish, xodimlarning dam olish va haq to'lanadigan ta'llillardan foydalanshan huquqini ta'minlash bo'yicha xalqaro standartlarni samarali joriy etishga keng imkoniyat yaratadi. Ayni chog'da O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarda jiboy imjini oshirishga hamda Jahon savdo tashkilotiga integratsiyalashuvini jadallashtirishga zamin qozaydi.

"Xalq so'zi".

YXHT DIIHB va MDHning saylovlarini kuzatish missiyalari vakillari bilan uchrashuv

M | S | K
O'ZBEKISTON RESPUBLİKASI
MARKAZIY SAYLOV KOMİSSİYASI

Markaziy saylov
komissiyasida YXHT
Demokratik institutlar va
inson huquqlari bo'yicha
bu yurosi (DIIHB) hamda
Mustaqil Davlatlar
Hamdo'stligi (MDH)ning
O'zbekiston Respublikasi Oliy
saylovlarini kuzatish bo'yicha missiyasi vakillari ishtirokida
uchrashuvlar tashkil etildi.

Uchrashuvlar avvalida MSK Raisi Z. Nizomxo'jayev YXHT DIIHB missiyasi rahbari Ueyk Dougla, byuroning saylovlar bo'yicha tahlilchisi Teylor Kris Djon hamda missiya ekspertlari Rija Dorota va Inaishvili Xaxa bilan muloqot olib bordi.

Shuningdek, kunning ikkinchi yarmida Markaziy saylov komissiyasiga Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) Bosh kotibi o'rbinbos D. Trefilov hamda MDH Ijroja missiya shahbi rahbari Ye. Kozyak tashrif buyurdi.

Markaziy saylov komissiyasi Raisi Z. Nizomxo'jayev bo'lib o'tgan muloqot davomida xalqaro tashkilotlar O'zbekistonda o'tkazilgan saylovlarini kuzatish missiyalarining natijalari bo'yicha hisobot va xulosalardagi tavsiyalarni milliy qonunchiligidan qo'maytirishga amaliyotimizga implementatsiya qilish, saylovlariga oid huquqiy bazani takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar tafsilotiga to'xalib o'tdi.

Xalqaro tashkilotlar saylovlarini kuzatish missiyalarining natijalari bo'yicha hisobot va xulosalardagi tavsiyalarni O'zbekistonda saylov va referendum qonunchiligidan yanada takomillashtirish, saylov va referendum amaliyoti samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilayotgan alohida e'tirof etildi.

Biz O'zbekiston taklifiga binoan saylovlarini kuzatish missiyasini o'tkazish uchun keldik, - deydi YXHT DIIHB missiyasi rahbari Ueyk Dougla. - Mamlakatingiz uchun muhim sana - 27-oktjabrda bo'lib o'tdagani O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlarini aralash saylov tizimi asosida o'tkazilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari, milliy saylov amaliyotiga ta'biq etilgan yangiliklardan yana biri - "E-Saylov" axborot tizimi va mazkur tizimning afzalliklari yuzasidan batafsil ma'lumot beril o'tdi.

Xususan, saylov kampaniyasi tobora qizg'in pallaga kirib borayotgani, bu mas'uliyatlari jarayon Markaziy saylov komissiyasi tomonidan Saylov kodeksida belgilangan tarbilarga binoan izchillik bilan muvofiqlashtirib borilayotganligi, saylovlariga tayyorgarlik bo'rish va uni o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga oshkorlik berish maqsadida tadbirlarning tarihi, bosqichlari va muddatlar haqidagi axborotlar, eng avvalo, saylovchilarga hamda siyosiy partiyalarga Markaziy saylov komissiyasining rasmiy web-sayti va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali tezkorlik bilan yetkazilayotgani ta'kidlidi.

Muloqotlar konstruktiv va samimiy tarzda o'tdi. Markaziy saylov komissiyasi o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida bu kabi muloqotlarga doim tayyor va ochiq ekanligi qayd etildi.

"Xalq so'zi".

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis
Senati Kengashi

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skener qiling.

TELEFONLAR:
Devonxonha 71-259-74-51; ko'bitiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tablo. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxa.

Chustiy tavalludining 120-yilligiga

EY TAFAKKUR OLAMIDA FIKRI DARYO DO'STLAR

Joriy yilda atoqli shoir Chustiy tavalludining 120-yilligi nishonlanmoqda. Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi, Vazirlar Mahkamasining alohida farmoyishi bilan o'tkazilayotgan shoirimizning tavallud ayyomi barcha eldoshlarimizga qutlug' bo'lsin, deymiz. Ushbu ma'rifatparvar ijodkor haqida, u kishining "Saylanna"si uchun so'z yozib berish fikri xayolimda ham bo'lmagan tig'iz va tigilinch kunlarda mas'ul noshirlardan shunday taklif tushganiyu, men uni hech ikkilanmasdan darrov qabul qila qolganining boisi bor, albatta. Ikkinchisi tomondan, "Chustiy domla bilan ko'rishmagan, gaplashmagan bo'lsam, nima ham deyishim mumkin..." degan ishtiboh ko'ngilni chimchilab turar, ayni damdagi andakkina bezovta bo'lib turishim shundan edi.



Biroq eng yaxshi suhbatdosh va gurungdosh shoiring asarlari – she'rli, g'azallari ediki, men har holda bundan ozroq xabardor edim.

Bu orada anche-muncha kitob va manbalarni titkilashga to'g'ri keldi. Shoir boboning tarjimai holiga doir ajib va kutilmagan malumatlar, qiziq va ajabtovur gaplar, istiboddiz zamona u kishining boshiga tushgan turfa savoldardan boxabar bo'lib, tang ahvolda qolganimni ham aytishim kerak. Buni qarangchi, Chust va Qo'qondagi eski maktab va madrasalarda ta'lim olgan Chustiy domla Mir Alisher Navoiy tavalludining 500-yillik sanasini o'tkazishga tayyorgarlik munosabati bilan Toshkentiga ishga chiqirilgan ekan. Shu yillarda davomida Muqimiy teatrinda adabiy emakdosh va direktor, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot fonda direktor vazifalarida ishlash barobarida, asosan, mumtoz she'riyat yo'lida samarali ijod qilib, g'azal, muxammas, musaddas, murabba, rubo'i, tuyuq va masnaviyalar yozib, bu borada anchayin shuhrat qozongan shoir sifatida elga taniilib bo'lgan edi. Manbalarga ko'ra, "...ikkinchisi jahon urushi yillarda faol ijod qilib, vatanparvarlik va qahramonlik mavzularida qator she'riy hamda dolzor sahna asarlari ham yozgan" ekanlari, eng ajablansanli, bir kun kelib, ana shunday ijtimoiy faol va hozirjavob shoiri zamon Yozuvchilar uyushmasi a'zolari safidan o'chirilgan ham ekan...

"Zamon nozik, do'ppim tor edi" deyilganidek, keyinchalik, oradan ellik-oltmis yillar o'tib, XXI asrning o'uchinchisi yili, avji istiqol zamonida, ustoz Erkin Vohidovning "Muhabbatnomasi" devoniga muqaddima bo'lmish "Chustiy haqida so'z" bag'ishlovida shunday xotiralarini oqiyimiz:

"Chustiy xushchaqchaq, hozirjavob va dilbar inson sifatida tasavvurimiga muhrlangan. Mumtoz adabiy maktab an'analarini ruhiba tarbiya topgan Chustiyning sobiq sovet davri sharoitidagi hayotida ko'pgina yoqimizsiz hodisalar bo'lgani ma'lum. Yozuvchilar uyushmasi a'zoligidan o'chirilgani, asossiz-asossi tajqid va tajhirlar har qanday ijodkorni "sindirishi" mumkin edi. Ammo men Chustiy bilan ko'p marotaba har xil sharoitda uchrashgan bo'lsam ham, uni hech qachon hazin, ruhan ezik, umidsiz holda ko'rgan emasman. Chustiy o'z g'am-g'ussasini ichiga yuta biladigan, kishilarni o'zining motamiga emas, bayramiga hamroh va hamdam etadigan ajoyib inson edi. Tog'am rahmatlining xonardonida bo'ladigan suhbatlarda Chustiy mumtoz adabiyotning bilimdoni sharoitda ham davraning muhabbatiga sazovor edi..."

Ustozning e'tirofiga ko'ra, adabiyotimiz tarixida butun bir avlod javlon urganki, uning xizmati hali o'zining to'la bahosini olib emas. O'tgan asrning 20-yillarida boy madaniy va adabiy merosimizga ixlosimiz qoraladan, o'tmish madaniyatlarni o'rganish man etildi. Keyinroq bu sohada anche yengillik paydo bo'lgan bo'lsa ham, avvalgi salbiy munosabatning kasofati ma'lum darajada sezilib turdi va merosimizni haqiqiy keng miqyosda o'rganishga to'siq bo'ldi. Hatto oltmishinchisi yillarda ham, masalan, ming yillik she'riyatimizning shakli bo'lgan aruzga salbiy munosabat rasmiy ravishda "kattalar"ning nutq va maqolalarida aniq izhor qilingan.

Uzoq hukm surgan ana shu inkorchilik sharoitida, deya o'sha davrga baho berarkan, Erkin aka o'zi suv ichgan daryolarni ham bir-bir eslab o'tadi: So'fizoda, Xurshid, Habibiy, Charxiy va Chustiy kabi shoirlar mumtoz adabiyotimiz an'analarini davom ettirdilar va bu an'analarining hayotiyligini isbot qilishdan to'xtamadir. Ularning ijodi o'z qudrat va mahorati, ayniqsa, xalqqa yaqinligi bilan yosh she'riy avlodni ham an anaviy she'r yozishga da'vat etdi. Shunday qilib, Chustiy va uning hamkorlari o'tmish adabiyotimiz o'tasiga ko'priq solib berdi, bu jasur qadam va katta tarixiy xizmatidir.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarning uzviy davomi sifatida boshqa bir iqtibosni ham eslitib o'tmoq lozim. Izzat Sulton domla yozib qoldirgan ekan:

"Adabiyotimizni, uning eng muhim vositalarini himoya qilishning birdan-bir yo'li mumtoz

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiz qilinmaydi va mullaqiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmilashtirgan tashkilat javobgar.

Gazeta tahririyat computer markazida teridil hamda operator M. Begumovdan sonaliq bilan.

Gazetaning poligrafijahdidi sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.

Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

chiqarganimiz "Oqibatni kim bilur?" nomli muxammasi bo'lib, shoir boboning go'zal nazmiy bitiklari qatorida shak-shubhasiz alohida maqom va mavqega munosibidir. Men o'zim bu muxammasi ilk bor she'r va qo'shiq tarzida, jironi ijroda tanqili hofiz Ne'matjon Qulabdullaevyedan eshitganman. Bir guruh shoirlar san'atkorlar avtobusda Toshkentdan Bekobod sari adabiy-ma'rifiy uchrashuvga ketayotgan edik, ustoz Jumaniyoz Jabborov bos bakhov. Ne'matjon aka dutorini oлган, yo'ning tanbonya bildirmaslik uchun she'rxonlik, hazil-mutoyiba qilib borayotmiz. Yo'ning ikki tomoni keng dashti dalalar boshlanadigan qismiga kelganimizda Jumaniyoz akaning ittimosi bilan hofizimiz dutorini g'ilofdan chiqarib, pardasini asta sozlab, zamzamani boshladi:

Eye tafakkur olamida fikri daryo do'stlar,
Bir savolimga javob bergaymu dono do'stlar,
Bilgali bir sir iloji bormi aslo do'stlar,
Hayratimni orttirar har dam bu dunyo do'stlar,
Telba etmasmu meni oxir bu savdo, do'stlar.

...Oqibatning chehrasi shunday uzoq, pinhon ekan,
Qancha donishmand esa, bu ma'nida nodon ekan,
Hay darig', oz vaqt uchun inson aziz mehmon ekan,
Qolsa yaxshi nomi elda, Chustiy bearmon ekan,
To abad qolgay yuraklarda bu siyomo, do'stlar.

Qo'shiqning avj pardalariga kelganda, ayniqsa, "Bo'g'u ro'g'im kimga qolgay, kim uchun dog'im qolur, Bu muammo, bu muammo, bu muammo, do'stlar" yoki "Bu taajjubdir, taajjubdir, taajjubdir ajib, Menga pinhon, kimga ma'lumdir bu ma'no, do'stlar" baytlarini ko'zlarini yumib, astoydil nolakor ohanga aytar ekan, Ne'matjon aka hozir hammani sel qilib, o'zi ham sel bo'lib, butkul sehranganday bir samoviy holatda ediki, avtobusdaligimiz ham esimizdan chiqqan ekanmi, yo'ning bir o'nqiriga tushgan g'ildirkadan nazm va naav avtobusimiz qattiq silkinib ketganda o'zimzga keldik...

O'shanda Ne'matjon aka ko'pchilik yosh san'atkorlar shoirlar mumtoz adabiyotni bilmasligi, g'azal o'qimasligi Chustiy ijodidan mutlaq bekoradagi qizmati juda kattadir.

Men yana Chustiy domla qalamiga mansub juda ko'p she'r uchun dog'ishlarni, misol uchun, bugungi kungacha ahamiyatini yo'qotmagan "Yaxshi otanadir", "Ota hummati", "Agli raso bo'lsin", "Farzandlar uchun", "Dam g'animat" singari ko'plab axloqiy-tarbiyaviy mavzudagi she'rilarini, o'sha zamon tazyiqlari xuddi javob tarzida yangraguchni "Aruz ilhom" muxammasi, "Kim yetdiyu, kim yetmad", "Kim keyin, kim ilgari" singari o'nlab g'azal va muxammalarini aytilib o'tishim mumkin. Bu asarlар shunchaki ermakkha yozilgan, har satri, har baytida katta bir yurakning, bedor-beorum bil qalbning uyg'ooq sadolari...

Domaning "Indamaslar olami" masnaviy dostoni alohida mavzu. O'sha qiyin va qabohat yillarda ham tinqili san'atkorlar tomonidan qo'shiq qilib aytilganda, salkam ming kishilik davralarning chingizqur suhatiga guvoh bo'lganmiz. Demak, odamzod faqat yaxshilik uchun yaralgan, yaxshilik uchun odam bolalariga umr berilgan. Qadr etib, qadr topib, elu yurt uchun fido bo'lib yashamoqning saodatini odamzodning o'kinch va armonlarini o'zida mujassam etgan bu dostonning vazifasi bilan ahamiyati hech qachon eskimaydi. Chustiy domlaning o'limas ijodi sifatida to aruz, to nazm saltanati mavjud ekan, bu asar yashayverishiga, uni bitgan shoir ham bar hayotligiga kafolatdir bu.

Modomiki, gap saylanma asarlari xususida ketar ekan, aziz kitobxonlari Chustiyning o'zlarini orzu etgandayin ancha mukammal va tugal-to'kis tayorlangan bi yemirilmas multasham nazmий obida bilan yana bir karra muborakbos etamiz.

Nazmий tariximidan ma'lumki, Navoiy bobomizning avlodlarga qarata bitgan nasihatnomasi she'rleri bor, Hafiz Sheroyzi, Sa'diy nasihatnomalari bor. So'zimizni Chustiy domlaning "Vasiyatnomasi"dagi dardli va armonli baytlari bilan yakunlamoqni lozim topdik:

Odamiy bo'l, odamiy bo'l, odamiy,
Senda bo'lsin odamylarni g'ami.
Bu ulug' hikmat Navoiyni so'zi,
Ma'nini aflokini yorug' yulduzi.
Doimo o'tganlarining yod qil,
Ruhni pokin esla, har dam shod qil.
Ota-ona ruhini qilsang rizo,
Hurmating farzandlaring aylar bajo.
Ayla doim yaxshilik bog'ida sayr,
Jannatul – Firdavs aro ko'rguncha xayr!
Fotila chog'ida siz a